

## G`amxo`rlikdan minnatdormiz!

 [Sahifani PDF tarzda yuklab olish \(51 Kb\)](#)  [Versiyasi](#)  [Sahifani doc tarzda yuklab olish \(51 KB\)](#)



Prezidentimizning «Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag`batlantirish to`g`risida»gi Farmoni xalqimizni, ayniqsa biz, nuroniylarni cheksiz quvontirdi.

Yurtimizda kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, jumladan urush va mehnat faxriylariga, nogironlarga ehtirom ko`rsatish, ularga imtiyozlar yaratish borasida keng ko`lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu, yoshlarni vatanga sadoqat, kelajakka mustahkam ishonch, kattalarga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim omil bo`lmoqda.

Men ham qirchillama yigit chog`imda tengqurlarim qatori urushga otlandim. Qo`limga qurol olib, yurtimiz ozodligi yo`lida janggohlarga kirdim.

Urush tugagach, qadrdon yurtimga qaytib keldim va ko`p yillar vatan taraqqiyoti yo`lida sidqidildan xizmat qildim. Halol mehnatdan qadr topdim. Yurt ishiga kamarbasta ikki o`g`il, bir qiz o`stirib, ularning kamolidan quvondim. Hozir yoshim 93 da. Nevara va chevaralarim ardog`idaman.

Keksaygan chog`imizda g`amxo`rlikdan yayrayapmiz. Zero, mustaqil vatanimizda muttasil rivojlanishlar yuz bermoqda, bir-biridan mahobatli qurilishlar amalga oshirilmoqda, qariyalarga, urush va mehnat faxriylariga g`amxo`rliklar ko`rsatilmoqda.

Prezidentimizning Farmoni ana shunday e`tibor va g`amxo`rlikning yana bir yorqin namunasi bo`ldi. Prezidentimizni Ollohning o`zi qo`llasin, yurtimiz doimo tinch va farovon bo`lsin.

**Otaboy ERMAG`AMBETOV,**

**urush va mehnat faxriysi,**

**Nukus shahri, «Qizilqum» mahalla fuqarolar yig`ini.**

**M.Habibullaev olgan surat.**